

“TASDIQLANGAN”

“Toshkent” RFB AJ
Kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra
2023-yil 12-maydagi 6-sonli
Bayonnoma bilan

“KELISHILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
2023 yil “30” avgustda 1-son bilan.

**“Toshkent” Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyatida birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish
TARTIBI**

MUNDARIJA

I. UMUMIY QOIDALAR.....	3
II. BIRJADA BIRJA OBLIGATSIYALARINI CHIQARISH VA MUOMALAGA KIRITISH XUSUSIYATLARI.....	4
III. BIRJA OBLIGATSIYALARINI CHIQARISH BOSQICHLARI.....	4
IV. BIRJA OBLIGATSIYALARINI LISTINGGA KIRITISH VA JOYLASHTIRISHGA RUXSAT BERISH TARTIBI.....	7
V. LISTING XIZMATLARI KO'RSATISH TO'G'RISIDAGI SHARTNOMA.....	7
VI. BIRJA OBLIGATSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI.....	8
VII. BIRJA OBLIGATSIYALARINING MUOMALASI.....	9
VIII. BIRJA OBLIGATSIYALARINI SO'NDARISH VA TO'LASH TARTIBI.....	10
IX. YAKUNLOVCHI QOIDALAR.....	10

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Birja va birja faoliyati to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda boshqa qonun hujjatlariga, “Toshkent” RFB birja kotirovkalari to‘g‘risidagi nizomga, “Toshkent” RFB AJning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq, ishlab chiqilgan hamda birja obligatsiyalarini “Toshkent” Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyatida ro‘yxatdan o‘tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish tartibini belgilaydi.

Birja obligatsiyalarining emissiyasi va ularning chiqarilishini (qo‘shimcha chiqarilishini) ro‘yxatdan o‘tkazish **vakolatli davlat organi** bilan kelishilgan holda birja tomonidan tasdiqlangan Tartibga asosan amalga oshiriladi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Birja – “Toshkent” Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyati;

Birja obligatsiyasi – chiqarilishi fond birjasi tomonidan ro‘yxatga olinadigan va fond birjasining kotirovkalash varag‘iga kiritilgan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qarz emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Oferta hujjati (keyingi o‘rinlarda – **Oferta**) – birja obligatsiyalarini chiqarish shartlarini belgilovchi hujjat;

birja obligatsiyalarini chiqarish dasturi (keyingi o‘rinlarda – **Dastur**) – Oferta hujjatiga muvofiq, birja obligatsiyalarining bir yoki bir nechta chiqarilishini ro‘yxatdan o‘tkazish.

Dastur muntazam qarz olish uchun moslashuvchan vosita bo‘lib, emitentga birja obligatsiyalarini joylashtirish yo‘li bilan imkon qadar qisqa vaqt ichida fond bozoridan mablag‘ jalb qilish imkonini beradi va ularning emissiya parametrlari joriy bozor sharoitlariga yoki emitentning ehtiyojlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi;

birja obligatsiyalarining alohida emissiyasi – Dasturga kirmaydigan, Ofertaga muvofiq, birja obligatsiyalarini chiqarish;

individual birja identifikatsiya raqami – birja obligatsiyalarining chiqarilishiga (keyingi chiqarilishiga) Birja tomonidan tayinlangan noyob identifikator (birja tikeri);

birja obligatsiyalarining emitenti (keyingi o‘rinlarda – **Emitent**) – ushbu Tartibga muvofiq, birja obligatsiyalarini chiqaradigan aksiyadorlik jamiyati;

emitentning kredit reytingi – reyting agentligining emitentning muayyan qarz majburiyatining kredit sifati darajasi va uning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq qondirish qobiliyatiga bahosi;

Shartnoma – Fond birjasining kotirovkalash varag‘iga emitentning birja obligatsiyalarini kiritish va mavjudligi to‘g‘risidagi bitim;

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi – depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan

huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi;

birja obligatsiyalarini ro'yxatga olish jurnali – Birja tomonidan ro'yxatga olingan birja obligatsiyalarining chiqarilishlari (qo'shimcha emissiyalari) ro'yxati;

vakolatli davlat organi – qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi.

II. Birjada birja obligatsiyalarini chiqarish va muomalaga kiritish xususiyatlari

3. Birja obligatsiyalarining emissiyasi va ularning chiqarilishini (qo'shimcha chiqarilishini) ro'yxatdan o'tkazish ushbu Tartibda nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan amalga oshiriladi.

“Toshkent” RFBning birja kotirovkalari to'g'risida”gi Nizom va “Toshkent” RFBda qimmatli qog'ozlar savdosi qoidalari”da qo'llaniladigan atama, tushuncha va tartiblar ushbu Tartibda ko'rsatilgan aniq atama, tushuncha va tartiblarga qo'shimcha ravishda qo'llaniladi. Shartlar, tushunchalar va tartib-qoidalar ziddiyatli bo'lgan taqdirda, ushbu Tartib qo'llaniladi.

Birja obligatsiyalarini joylashtirish va muomalaga chiqarish Birja orqali amalga oshiriladi. Birja obligatsiyalarining so'ndirilish muddati bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Birja obligatsiyalari “Stock Market” aksiyalar bozorining “Premium”, “Standart” va “Tranzit”segment toifalariga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi.

III. Birja obligatsiyalarini chiqarish bosqichlari

4. Birja obligatsiyalarini chiqarish bosqichlari quyidagi tartiblarni o'z ichiga oladi:

a) emitentning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan birja obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;

b) Ofertaga muvofiq, birja obligatsiyalarini chiqarish Dasturini yoki birja obligatsiyalarining alohida chiqarilishini tasdiqlash;

v) qonun hujjatlariga va ushbu Tartibga asosan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi axborotni emitent tomonidan oshkor etish;

g) birja obligatsiyalarini joylashtirish;

d) birja obligatsiyalarini chiqarish, joylashtirish va so'ndirish to'g'risidagi hisobotni Birjaga taqdim etish orqali birja obligatsiyalarini chiqarish natijalari to'g'risida bildirishnoma berish.

5. Birja obligatsiyalari quyidagi talablar asosida chiqariladi:

a) birja obligatsiyalarini joylashtirish ochiq obuna yo'li bilan amalga oshiriladi;

b) birja obligatsiyalarining emitenti kamida bir yil mavjud bo'lishi kerak;

v) emitentlar so'ngi yil yoki yakunlangan oxirgi chorak yakunlari bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari bilan tasdiqlangan rentabellik, to'lovga

qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak;

g) birja obligatsiyalari markaziy depozitariyda hujjatsiz shaklda markazlashgan xolda hisobga olinadi va saqlanadi;

d) birja obligatsiyalari o'z egalariga, nominal qiymatini yoki nominal qiymatining belgilangan foizini olish huquqidan tashqari boshqa huquqlarni bermaydi.

6. Birja obligatsiyalarining chiqarilishini (keyingi chiqarilishi) ro'yxatdan o'tkazish Birja tomonidan emissiya (keyingi chiqarish)ga individual birja identifikatsiya raqamini va uni berish sanasini bergan holda amalga oshiriladi.

7. Birja kotirovkalash varag'iga kiritiladigan birja obligatsiyalarining har bir chiqariluvini (qo'shimcha chiqariluvini) da Birja va emitent o'rtasida alohida Shartnoma tuziladi.

8. Bunday birja obligatsiyalarining emitenti Birja va emitentning rasmiy veb-saytlarida, birja obligatsiyalarini joylashtirish (muomalaga kiritish) boshlangan sanadan kamida bir ish kuni oldin e'lon qilish orqali birja tomonidan tasdiqlangan birja obligatsiyalari Ofertasida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi.

9. Birja obligatsiyalarining emitenti ularni joylashtirish boshlanganidan keyin birja obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qarorga va/yoki birja obligatsiyalari Ofertasiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

Birja obligatsiyalari joylashtiriluvini boshlanishidan oldin Birja obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qarorga va/yoki birja obligatsiyalari Ofertasiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, emitent bu to'g'risidagi ma'lumotlarni birja savdolariga qo'yish to'g'risidagi axborot oshkor etiladigan tartib va muddatlarda oshkor qilishi shart.

10. Birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qarorga va/yoki Oferta hujjatiga o'zgartirishlar emitentning yozma arizasi asosida kiritiladi, ular Birja tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qarorga va/yoki Oferta hujjatiga o'zgartirishlar, qo'shimchalar emitent boshqaruv organining qarori bilan amalga oshiriladi.

11. Birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qarorga va Oferta hujjatiga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarorni Birja tomonidan tasdiqlashda, emitent Birjaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

– emitentning Birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qaroriga va/yoki Oferta hujjatiga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi arizasi;

– birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qarorga va/yoki Ofertaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan ushbu qaror qabul qilinganligini tasdiqlovchi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomadan ko'chirma;

– yagona aksiyador – aksiyadorning tegishli qarori nusxasi yoki ko'chirma;

mazkur Tartib ilovasiga muvofiq shaklda tuzilgan, avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarishlariga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar matni taqdim etiladi.

12. Birja obligatsiyalarini chiqarish (keyingi chiqarish) to'g'risidagi qarorga va/yoki Oferta hujjatiga kiritiladigan o'zgartirishlar, Birja obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror ro'yxatdan o'tkazilgunga (tasdiqlangunga) qadar faqat quyidagi hollardagina amalga oshiriladi:

a) emitentning korporativ nomidagi o'zgarishlar, shu jumladan, kirill alifbosidan lotin alifbosiga o'tkazishdagi o'zgartirish xolatlarida;

b) emissiya hajmi, chegirma yoki nominal qiymatning belgilangan foizi (kupon) kabi bozor sharoitlariga bog'liq bo'lgan individual joylashtirish parametrlarining o'zgarishi;

d) agar o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalarning kiritilishi Hukumat qarorlari bilan bog'liq bo'lsa.

13. Birja savdosiga ruxsat etilgan birja obligatsiyalarini joylashtirishini Birja yoki qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining qarori bilan to'xtatib turilishi, quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a) birja obligatsiyalarini chiqarish jarayonida emitent tomonidan qonun hujjatlari, qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ushbu Tartib talablari buzilganda;

b) vakolatli davlat organining hisobotlarni taqdim etish va axborotni oshkor etish to'g'risidagi ko'rsatmalari bajarilmaganda (faqat joylashtirish muddati davomida);

v) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziya chaqirib olinganda (tijorat banklari uchun);

g) emitent birja obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qarori va Oferta hujjati bilan tanishib chiqish joyi va tartibi bo'yicha ma'lumotlar Korporativ axborot yagona portali, birja va emitentning rasmiy veb-saytida oshkor qilinmaganda (faqat joylashtirish muddati davomida);

d) Birja tomonidan birja obligatsiyalarini joylashtirilishiga ruxsat beruvchi qaror qabul qilishga asos bo'lgan hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangandi;

e) tegishli sud qarori mavjud bo'lganda.

Birja savdosiga ruxsat etilgan birja obligatsiyalarini joylashtirish va/yoki muomalasi to'xtatilganligi to'g'risidagi axborot bir ish kunidan kechiktirmay **vakolatli davlat organiga yetkazilishi lozim.**

14. Birja savdolariga qo'yilgan birja obligatsiyalarini joylashtirish va/yoki muomalasini tiklash qaror qabul qilgan organning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

15. Emitent birja obligatsiyalarini joylashtirish ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda, biroq birja obligatsiyalarini joylashtirish boshlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay yakunlanishi shart.

16. Birja obligatsiyalari muomalasi ular to'liq joylashtirilmagunga va ularning haqi to'liq to'lanmagunga qadar taqiqlanadi.

IV. Birja obligatsiyalarini listingga kiritish va joylashtirishga ruxsat berish tartibi.

17. Birja obligatsiyalarini listingga qo'yish tartibi "Toshkent" RFB birja kotirovkalari to'g'risidagi" Nizom va mazkur Tartibda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– Tartibning 1-ilovasiga muvofiq, taqdim etilgan hujjatlar bilan birgalikda Ofertani ro'yxatdan o'tkazish va emitentning birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini Birja tomonidan ko'rib chiqish;

– Tartibning 2-ilovasiga muvofiq, emitentning qimmatli qog'ozlar bo'yicha Ofertasini elektron yoki qog'oz shaklda ko'rib chiqish.

– 3-ilovaga muvofiq, qimmatli qog'ozlar emitentning moliyaviy holatini baholash.

18. Birja Listing komissiyasi Birja Boshqaruviga Ofertani ro'yxatdan o'tkazish va emitentning birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'iga kiritish yoki asoslantirilgan holda rad etish to'g'risida xulosa taqdim etadi.

19. Birja boshqaruvi Ofertani ro'yxatdan o'tkazish va emitentning birja obligatsiyalarini listing komissiyasi xulosasi olingan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida birja kotirovkalash varag'iga kiritish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi, ushbu qaror bir ish kuni ichida emitentning elektron pochta yoki yuridik manziliga yuboriladi.

Birja tomonidan birja obligatsiyalari bo'yicha Oferta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, emitentga Listing xizmatlari shartnomasining ikki nusxasi va to'lov uchun hisobvarag'i yuboriladi

Birja, birja obligatsiyalari chiqarilishini rasmiylashtirish uchun tegishli hujjatlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga, Emitent tomonidan shartnoma imzolangan va birja obligatsiyalari birja kotirovkalari varag'ida bo'lgan davri uchun listing yig'imi to'liq olinganidan keyin taqdim etadi.

Birja obligatsiyalarining har bir chiqarilishi "Birja kotirovkalari to'g'risida"gi Nizom va mazkur Tartib talablari asosida listingdan o'tishi kerak.

Birja, birja obligatsiyalari chiqarilishini rasmiylashtirish uchun emitent yoki anderrayter tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi uchun javobgar bo'lmaydi.

V. Listing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma

20. Birja obligatsiyalari birja kotirovkalash varag'iga birja va emitent o'rtasida tuziladigan listing xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda – listing xizmatlari shartnomasi) asosida kiritiladi.

21. Shartnomaning predmeti birja tomonidan emitentga "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'i to'g'risida"gi Nizom va ushbu tartib talablariga muvofiq, birja obligatsiyalari Ofertani ro'yxatdan o'tkazish va birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'igaga kiritish bo'yicha ko'rsatiladigan listing xizmatlari majmui hisoblanadi.

22. Yuborilgan shartnoma birja obligatsiyalari emitenti tomonidan imzolanishi va yuqoridagi shartnoma olingan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida Birjaga taqdim etishi kerak.

23. Emitent tomonidan imzolangan shartnomaning ikki nusxasi va birja obligatsiyalari birja kotirovkalari varag'ida bo'lgan davr uchun listing yig'imi to'liq olinganidan hamda Markaziy depozitariydan emitentning birja obligatsiyalari ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida bildirishnoma olingandan so'ng, Birja boshqaruv kengashi birja obligatsiyalarni birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

24. Emitent obligatsiya amal qilish muddati uchun listing yig'imi to'lamagan va imzolangan shartnomani belgilangan muddatlarda taqdim etmagan hollarda, emitent yana listingga olish jarayonidan qayta o'tadi.

25. Birja boshqaruvining birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi qaroriga asosan, birjaning mas'ul bo'linmasi bir ish kundan kechiktirmay Yagona dasturiy texnik majmuasi (keyingi o'rinlarda – YADTM) savdo tizimiga birja obligatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi.

Emitentning birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'iga kiritish sanasi YADTM savdo tizimiga birja obligatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgandan keyingi savdo kuni hisoblanadi.

26. Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan birja obligatsiyalari uchun birja obligatsiyalarining har bir chiqarilishiga (muntazam chiqarilishi) Tartibning 4-ilovasiga muvofiq birja tomonidan yagona identifikatsiya raqami va birja kodi beriladi.

Ushbu identifikatsiya raqami har bir emitent uchun yagona bo'lib, axborot va tahliliy maqsadlarda foydalaniladi.

27. Birja, birja obligatsiyalarini birja kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risida Birja Boshqaruvi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida bu haqda emitentni xabardor qiladi va tegishli ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

28. Birja kotirovkalash varag'iga kiritish rad etilgan taqdirda, emitent umumiy asosda birja kotirovkalash varag'iga kiritish uchun birjaga qayta murojaat qilishga haqli.

VI. Birja obligatsiyalarini joylashtirish tartibi

29. Birja obligatsiyalarining chiqarilishi (keyingi chiqarilish) Birja tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif qilish yoki joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Emitent va/yoki anderrayter, emitent bilan tuzilgan shartnomaga binoan birja obligatsiyalarini joylashtirishni amalga oshiruvchi, investorga taklif hujjati va ma'lum bir transhdagi birja obligatsiyalarini joylashtirish shartlari (Oferta shartlari) bilan ularni sotib olishdan oldin tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart.

30. Birja obligatsiyalarini chiqarish parametrlarini hisobga olish, har bir transhning chiqarilishiga individual birja identifikatsiya raqamlarini berish uchun birja elektron shaklda birja obligatsiyalar chiqarilishi reestrini shakllantiradi.

31. Birja obligatsiyalari quyidagi turlarda muomalaga chiqarilishi mumkin:
konvertatsiya qilinmaydigan diskont obligatsiyalar;
konvertatsiya qilinmaydigan foizli (kupon) obligatsiyalar.

32. Birja obligatsiyalarini chiqarish bo'yicha Ofertada obligatsiya turi, shartlari va ularni so'ndirish muddati ko'rsatiladi.

33. Birja obligatsiyalarini joylashtirish Birja orqali amalga oshiriladi.

34. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hujjatsiz shaklda ular to'liq to'langandan va ularni joylashtirish muddati mobaynida xaridorning depo hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng joylashtirilgan hisoblanadi.

35. Birja obligatsiyalarini joylashtirish tugallangan sanadan yoki birja obligatsiyalarini joylashtirish muddati tugagan sanadan keyingi kundan kechiktirmay emitent yoki anderrayter birja obligatsiyalarini joylashtirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni emitentning rasmiy veb-saytida oshkor qilishi va bu haqda birjani xabardor qilishi shart.

36. Emitent yoki anderrayter Birjaga birja obligatsiyalarini chiqarish, joylashtirish va so'ndirish natijalari to'g'risidagi hisobotning nusxasini yuboradi.

37. Birja o'zining rasmiy veb-saytida birja obligatsiyalarini chiqarish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi, ularga quyidagilar kiradi:

birja obligatsiyalarini joylashtirishning boshlanish va tugash sanasi;
birja obligatsiyalarini joylashtirishning haqiqiy bahosi (narxlar);
nominal qiymati;

joylashtirilgan birja obligatsiyalarining nominal qiymati va soni.

birja obligatsiyalarining so'ndirilganligi;

birja obligatsiyalari savdosining to'xtatilganligi;

birja obligatsiyalarining bekor qilinganligi (sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganligi);

birja obligatsiyalari joylashtiriluvining tiklanganligi;

birja obligatsiyalari chiqarilishlar (emissiyalar) soni (aniq jadval shaklda).

VII. Birja obligatsiyalarining muomalasi

38. Birja obligatsiyalarining birjada muomalasi "Bond Market" obligatsiyalar bozorining quyidagi seksiyalarda amalga oshiriladi:

asosiy seksiya – Main Board;

muzokara auksioni seksiyasi – Nego Board;

obligatsiyalar bilan repo operatsiyalari bo'limi – Repo Board.

VIII. Birja obligatsiyalarini so‘ndirish va to‘lash tartibi

39. Birja obligatsiyalari muddati tugagandan so‘ng, ularni so‘ndirish sanasida emitent Markaziy depozitariydan birja obligatsiyalari egalarining reestrini so‘raydi.

40. Obligatsiya egalarining reestrini olgandan so‘ng, emitent yoki uning to‘lov agenti birja obligatsiyalari egalarining hisobvaraqlariga pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi.

41. Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini qimmatli qog‘ozlar reestridan chiqarish birja obligatsiyalarini chiqarishga (keyingi chiqarish) ilgari Birja tomonidan berilgan individual birja identifikatsiya raqamini bekor qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

42. Birja uch ish kuni davomida birja obligatsiyalari chiqarilishini bekor qilish va ularni birja obligatsiyalarini ro‘yxatga olish reestridan chiqarish to‘g‘risida Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga xabar beradi.

IX. Yakunlovchi qoidalar

43. Ushbu Tartib Birjaning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinganidan so‘ng kuchga kiradi.

44. Ushbu Tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar birja a‘zolarining, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining, shuningdek, birja boshqaruvi va kuzatuv kengashining tashabbusi bilan kiritilishi mumkin.

*“Toshkent” RFBda birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan
o‘tkazish, joylashtirish va
muomalaga kiritish tartibiga
1-ILOVA*

(kompaniya blankasida)

Birja obligatsiyalari bo‘yicha Ofertani ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni “Toshkent” RFB birja kotirovkalari ro‘yxatiga kiritish to‘g‘risidagi

EMITENT ARIZASI

(emitent nomi)
birja obligatsiyalari bo‘yicha Ofertani ro‘yxatdan o‘tkazish va
_____ dona, har birining nominal *(birja
obligatsiyalarining umumiy soni)*

qiymati _____ so‘mdan bo‘lgan birja obligatsiyalarini “Toshkent” RFB birja
(nominal)

kotirovkalash varag‘iga kiritish to‘g‘risidagi emitent vakolatli organining “_____” _____y.
__ - sonli qaroriga muvofiq Birja obligatsiyalari bo‘yicha Ofertani ro‘yxatdan o‘tkazish va birja
kotirovkalash varag‘iga kiritish uchun hujjatlar taqdim etmoqda.

**Imzo qo‘yish huquqiga ega
bo‘lgan vakolatli shaxsning _____
lavozimi**

F.I.Sh.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:
(ilova qilingan hujjatlar nomlari ro‘yxati ko‘rsatiladi)

**EMITENT ARIZASIGA ILOVA QILINADIGAN OFERTANI
RO'YXATDAN O'TKAZISH VA BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'IGA
KIRITISH UCHUN ILOVA QILINADIGAN HUJJATLAR**

№	Hujjat nomi
1.	Emitent vakolatli organining qimmatli qog'ozlar chiqarish va birja kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi qaror nusxasi yoki qarordan ko'chirma
2.	Amaldagi ta'xis hujjatlari, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar nusxalari
3.	oxirgi ikki yil uchun moliyaviy hisobotlar yoki agar emitent ikki yildan kam vaqt davomida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, oxirgi hisobot davri uchun moliyaviy hisobotlar nusxalari
4.	oxirgi ikki yil yoki agar emitent ikki yildan kam vaqt davomida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, oxirgi hisobot davri uchun auditorlik hisobotlarining nusxalari
5.	birja obligatsiyalarining Ofertasi va Oferta shartlari (3 nusxada)
6.	BHXS va AXS yoki GAAP nusxalari oxirgi yil yoki oxirgi hisobot davri uchun
7.	kupon daromadi to'lanadigan birja obligatsiyalari uchun kupon to'lash bo'yicha to'ldirilgan jadval
8.	emitentning korporativ veb-sayti nomini ko'rsatish
9.	birja kotirovkalash varag'iga kiritish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanadan kamida o'n ikki oy oldin berilgan emitentning joriy kredit reytingi, reyting hisobotining nusxasi bilan.
10.	Birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjati.
11.	Oferta shartlari formasi (agar birja obligatsiyalari Dastur asosida chiqarilsa).

*“Toshkent” RFBda birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan
o‘tkazish, joylashtirish va muomalaga
kiritish tartibiga
2-ILOVA*

“Toshkent” Respublika fond birjasi (“Toshkent” RFB yoki “Birja”) va unga aloqador kompaniyalar, ularning tegishli direktorlari/rahbarlari, mansabdor shaxslari va xodimlari ushbu hujjatning mazmuni, shu jumladan, unga kiritilgan har qanday ma’lumot yoki bayonotlarning to‘g‘riligi hamda to‘liqligi uchun javobgar emaslar. Ushbu hujjat uchun javobgarlik hujjat emitenti va boshqa shaxslar, masalan, anderryterlar hamda ekspertlarning fikri ularning roziligi bilan hujjatga kiritilgan.

Bundan tashqari, “Toshkent” RFB, uning direktorlari/rahbarlari, mansabdor shaxslari, xodimlari hujjatni o‘z ichiga olgan qimmatli qog‘ozlarning biron bir investor yoki investor turiga yaroqliligini baholamadilar. Agar siz ushbu hujjatning mazmunini tushunmasangiz yoki qimmatli qog‘ozlar sizning shaxsiy sharoitingizga mos kelishiga ishonchingiz komil bo‘lmasa, vakolatli moliyaviy maslahatchiga murojaat qilishingiz kerak.

Birja ushbu qimmatli qog‘ozlarni “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag‘iga kiritilishiga kafolat bermaydi. Birja, birja obligatsiyalarini “Toshkent” RFBning birja kotirovkalash varag‘iga kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi va agar ularni “Toshkent” RFB listing qoidalariga va “Toshkent” RFBda obligatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish tartibi”ga muvofiqligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina birja savdosiga ruxsat beradi.

(“Emitent nomi”)

**Jami miqdori (summa va valyuta) gacha bo‘lgan birja obligatsiyalari Dasturiga
tegishli**

OFERTA HUJJATI

Ushbu hujjat Oferta hujjati (“Oferta hujjati”)

Ushbu hujjat oferta hujjati (“Oferta hujjati”) bo‘lib, u birja obligatsiyalari dasturi bilan birgalikda (dasturning maksimal hajmiga) va uning egalik dasturiga) (“dastur”) qadar tayyorlangan bo‘lib, unga ko‘ra (emitent nomi) (“emitent”) vaqti-vaqti bilan birja obligatsiyalarini chiqarishi mumkin (“Qimmatli qog‘ozlar”) investorlarga faqat birjaning ushbu tartibidagi ta’rifga muvofiq taklif etiladi.

Dastur doirasida chiqarilgan har bir qimmatli qog‘ozlar seriyasi “tranh” deb nomlanadi. Har bir transhning belgilangan muddati 365 kalendar kundan oshmaydi. Dastur bir xil yoki boshqa vaqt oralig‘ida chiqarilgan bir yoki bir nechta transhlardan iborat bo‘lishi mumkin. Har bir transh ushbu tegishli transh maqsadlari uchun ushbu Oferta hujjatini to‘ldiradigan va ushbu taklif hujjati bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan tegishli taklif shartlariga bo‘ysunadi.

Shubhalarni oldini olish uchun ushbu Ofertada ko‘rsatilgan shartlar dastur doirasida chiqarilgan har bir transhga nisbatan qo‘llaniladi hamda tegishli taklif shartlari bilan to‘ldiriladi. Oferta shartlarining shakli ushbu oferta hujjatiga A ilovada keltirilgan.

Ushbu Oferta hujjati (sana) da emitentning (vakolatli organi) tomonidan tasdiqlangan. Ushbu Oferta hujjati Emitent tomonidan Birja veb-saytida e’lon qilingan. Har bir transh bo‘yicha taklif shartlari mos ravishda birja veb-sayti orqali e’lon qilinadi.

Ogohlantirishlar:

1. Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish to'g'risidagi har qanday qaror taklif hujjatini ko'rib chiqish va investor tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq risklarni to'liq tushunish va baholashga asoslangan bo'lishi kerak.
2. Siz investitsiya qilingan mablag'ning to'liq yoki bir qismini yo'qotishingiz mumkin.

Javobgarlik to'g'risidagi bayonnoma¹:

Oferta hujjati uning mazmuni uchun javobgar bo'lgan quyidagi shaxslar tomonidan tuziladi:

(Emitent nomi) ushbu Oferta xujjatiga nisbatan

(● mas'ul shaxs ismi)

Har bir bunday shaxs (ishning shunday bo'lishini ta'minlash uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshirish orqali) Oferta hujjatining tegishli qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, o'zi bilganicha, faktlarga mos kelishini va Oferta hujjatida uning ahamiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar yo'qligini tasdiqlaydi.

-
- 1 Mas'uliyat to'g'risidagi bayonnomada Oferta hujjati uchun mas'ul shaxslarning rekvizitlari va xususan: (i) agar mas'ul shaxs jismoniy shaxs bo'lsa, ushbu shaxsning ismi va vazifalari ko'rsatiladi; va (ii) mas'ul shaxs vakolatli boshqaruv organi yoki boshqa yuridik shaxs bo'lsa, ushbu shaxsning nomi va joylashgan joyi hamda Oferta hujjatini tasdiqlagan vakolatli boshqaruv organi ko'rsatiladi.

1-BO'LIM. EMITENT TO'G'RISIDA MA'LUMOT	
Emitent	<i>[to'liq yuridik va/yoki tijorat nomi]</i>
Emitentning aloqa ma'lumotlari	<i>[yuridik manzil, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili va korporativ veb-saytni o'z ichiga oladi]</i>
Ro'yxatdan o'tgan to'g'risidagi ma'lumotlari	<i>[mahalliy ro'yxatga olish raqami va/yoki yuridik shaxs identifikatori, joylashgan joyi, yuridik shakli, tashkil etilgan mamlakat va sanasi, shu jumladan, emitent qaysi qonunga muvofiq tuzilgani va faoliyat yuritayotganligi.]</i>
Asosiy faoliyati va biznes tasnifi	<i>[(a) emitent faoliyatining asosiy yo'nalishlari, sotiladigan mahsulotlar va/yoki ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy toifalari hamda emitent faoliyat yuritadigan asosiy bozorlar tavsifi; (b) eng so'nggi auditdan o'tgan moliyaviy hisobot e'lon qilingan kundan boshlab joriy qilingan har qanday muhim yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki faoliyat ko'rsatkichi]</i>
Asosiy aksiyadorlar va benefitsiar egalari	<i>[ushbu Oferta hujjati sanasidagi emitent aksiyalarining 10 yoki undan ortiq foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi shaxslarning nomlari va foizlari. Agar biron bir shaxs yoki shaxslar emitentni birgalikda nazorat qilsa, ushbu nazorat qanday amalga oshirilishini, shu jumladan, ovoz berish huquqidan tashqari har qanday nazorat huquqlarining tavsifini ham tushuntirish so'raladi.]</i>

Emitentning direktorlari va boshqaruvi	<i>[Emitentning boshqaruv shaxslari, shu jumladan, Emitentning amaldagi va taklif etilayotgan direktorlari hamda yuqori mansabdor shaxslarining ismlari va vazifalari]</i>
Auditorlar	<i>[Nomi, biznes manzili va kasbiy malakasi]</i>
Eng so‘nggi moliyaviy yil va/yoki undan ko‘p muddat uchun asosiy moliyaviy ma’lumotlar	<i>[Auditdan o‘tgan moliyaviy hisobotlar chop etiladigan va investorlar tomonidan ko‘rish mumkin bo‘lgan havola qo‘shilsin. Ushbu bo‘lim oxirgi yakunlangan moliyaviy yil va/yoki undan ko‘proq muddat uchun tegishli asosiy moliyaviy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, masalan: daromadlar, foizlar to‘lashdan oldingi foyda, soliqlar va amortizatsiya, soliqdan keyingi sof daromad, dividendlar (jami va sinflar bo‘yicha), jami aktivlar, pul mablag‘lari va naqd pul ekvivalentlari, jami majburiyatlar, jami qarz, jami kapital, operatsion faoliyatdan sof pul tushumlari – ularning har biri BHXS yoki boshqa buxgalteriya standartlariga muvofiq bo‘ladi va “Toshkent” RFB tomonidan tasdiqlanadi, belgilangan moliyaviy hisobotlarni Emitentning veb-saytida tekshirish mumkin bo‘ladi]</i>
Emitentning kredit reytingi	<i>[Reyting o‘tkazgan reyting agentligi ko‘rsatib o‘tilsin]</i>
Emitentning kredit layoqati	<i>[Tegishli moliyaviy ko‘rsatkichlar ko‘rsatilsin. Eslatma: Emitent tegishli kredit reytingiga (yuqorida ko‘rsatilganidek) ega bo‘lishi yoki “Toshkent” RFB tomonidan belgilangan moliyaviy talablarga javob berishi kerak.]</i>
Emitent va qimmatli qog‘ozlarga xos risklar	<i>[Emitent qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilish bilan bog‘liq risklar] (a) qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish bilan bog‘liq risklarning tabiati; (b) Emitentning biznes va moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi har qanday jiddiy risklar; (d) risklarni kamaytirish yoki boshqarish uchun emitent tomonidan taklif qilingan har qanday qadamlar;</i>
2 - BO‘LIM. DASTUR SHARTLARI VA HOLATI	
Qimmatli qog‘oz turi, shakli	<i>Qarz majburiyatlari bo‘lgan birja obligatsiyalari</i>
Dasturning hajmi va davomiyligi	<i>[Dasturning umumiy miqdori, valyutasi va Dasturning davomiyligi]</i>
Dastur maqsadi	<i>[Beriladigan transhlardan tushgan mablag‘lar nimaga ishlatilishi to‘g‘risidagi bayonotni qo‘shing]</i>
Valyuta (tegishli ravishda barcha transhlarga)	<i>[Emissiya valyutasi savdo valyutasidan farq qiladimi yoki yo‘qligini ko‘rsating]</i>
Nominal qiymat (agar barcha transhlarga tegishli bo‘lsa)	<i>Matn kiriting</i>
Qimmatli qog‘ozlar shakli	<i>Ro‘yxatdan o‘tgan (qog‘ozli bo‘lmagan) shakl</i>
Tarqatish rejasi	<i>Investorlarga faqat Birja qoidalarida belgilangan qimmatli qog‘ozlar taklif etiladi</i>

Muomala muddati	<i>Qimmatli qog‘ozlar tegishli transhni chiqarish vaqtida tegishli Oferta shartlarida ko‘rsatilgan muddatlarda so‘ndiriladi va to‘lanadi, birorta ham transh chiqarilgan kundan boshlab 365 kalendar kundan ortiq muomala muddatiga ega bo‘lmaydi.</i>
Qimmatli qog‘oz/ Qimmatli qog‘ozlar holati	<i>Qimmatli qog‘ozlar – emitentning ta‘minlanmagan umumiy majburiyatlari hisoblanadi.</i>
Defolt holatlari	<i>Defolt qayd etilishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarni ko‘rsating.</i>
Defolt holatida huquqiy ximoya choralari	<i>Investor murojaat qilishi mumkin bo‘lgan instansiyani (arbitraj, sud, yurisdiksiya) ko‘rsating.</i>
Dasturga o‘zgartirishlar kiritish	<i>Matn kiriting.</i>
Muddatidan oldin so‘ndirish va qaytarib olish shartlari	<i>[Qoidaga ko‘ra, birja obligatsiyalari muddatidan oldin yoki ixtiyoriy ravishda oldindan so‘ndirilmaguncha qaytarib olinmaydi.]</i>
Qimmatli qog‘ozlar egalariga to‘lovlar	<i>To‘lov usullari va mexanizmlarini ko‘rsating</i>
Amaldagi qonun va yurisdiksiya, defolt hollar bundan mustasno	<i>Qimmatli qog‘ozlar va Qimmatli qog‘ozlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday shartnomadan tashqari majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Birja qoidalariga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday da‘vo, nizo yoki har qanday xususiyatdagi nomuvofiqlik, O‘zbekiston Respublikasi sudiga taqdim etiladi va sud tomonidan davlat qoidalariga muvofiq yakuniy qaror qilinadi.</i>
Tashkilot	<i>“Toshkent” RFB</i>
Depozitariy	<i>Qimmatli qog‘ozlar iarkaziy depozitariysi</i>

Oferta shartlari formasi

(Quyida Dastur doirasida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning har bir Transhi uchun to'ldiriladigan qimmatli qog'ozlarni taklif qilish shartlari formasi keltirilgan.)

(“Emitent nomi”)

Oferta shartlari

Birja obligatsiyalari (qimmatli qog'ozni tasvirlang) sundirish muddati (●) (Birja tomonidan berilgan identifikatsion raqam: (●)

“Qimmatli qog'oz”

Dastur doirasida yoki alohida chiqariluv bilan chiqarilgan Birja obligatsiyalari umumiy summasi (●) gacha

Ushbu transhning qimmatli qog'ozlari (emitent nomi) (“Emitent”) tomonidan Dastur doirasida va “Toshkent” RFBning birja kotirovkalari varag'i va “Toshkent” RFBga birja obligatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risida” gi Nizomga muvofiq chiqarilgan. Bu yerda ishlatiladigan atamalar Oferta hujjatida (sana)ko'rsatilgan shartlar uchun hisoblanadi, vaqti-vaqti bilan (“Oferta hujjati”) o'zgartirilishi mumkin. Ushbu hujjat qimmatli qog'ozlar taklifining yakuniy shartlarini (“Oferta shartlari”) aks ettiradi. Ushbu hujjat Oferta hujjati bilan birgalikda ko'rib chiqilishi kerak. Oferta shartlari va oferta hujjati emitent hamda birja veb-saytida e'lon qilindi.

“Toshkent” Respublika fond birjasi (“Toshkent” RFB yoki “Birja”) va unga aloqador kompaniyalar, ularning tegishli direktorlari/rahbarlari, mansabdor shaxslari va xodimlari ushbu hujjatning mazmuni, shu jumladan, unga kiritilgan har qanday ma'lumot, bayonotlarning to'g'riligi yoki to'liqligi uchun javobgar emaslar. Ushbu hujjat uchun javobgarlik hujjat emitenti va boshqa shaxslar, masalan, anderrayerlar hamda ekspertlarning fikri ularning roziligi bilan hujjatga kiritilgan. Bundan tashqari, “Toshkent” RFB, uning direktorlari/rahbarlari, mansabdor shaxslari yoki xodimlari hujjatni o'z ichiga olgan qimmatli qog'ozlarning biron bir investor yoki investor turiga yaroqliligini baholamadilar. Agar siz ushbu hujjatning mazmunini tushunmasangiz yoki qimmatli qog'ozlar sizning shaxsiy sharoitingizga mos kelishiga ishonchingiz komil bo'lmasa, vakolatli moliyaviy maslahatchiga murojaat qilishingiz kerak.

Birja ushbu qimmatli qog'ozlarni “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilishiga kafolat bermaydi. Birja, birja obligatsiyalarini “Toshkent” RFBning birja kotirovkalari varag'iga kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va agar ular “Toshkent” RFB listing qoidalarga, “Toshkent” RFBda obligatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish Tartibi”ga muvofiqligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina birja savdosiga ruxsat beradi.

Emitent qo'yidagilarni taqdim etadi va kafolatlaydi, chiqarilish sanasida (quyida tavsiflanganidek):

emitent “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag'i to'g'risida”gi Nizom va “Toshkent” RFBda birja obligatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish Tartibi” talablariga to'liq rioya qilishini;

qimmatli qog'ozlarning umumiy qiymati Dasturning umumiy miqdoridan oshmasligini.

Oferta hujjatida belgilangan terminlar, agar ular ushbu hujjatda aniq belgilanmagan bo'lsa, ushbu Oferta shartlari uchun bir xil ma'noga ega.

Transh №	<i>Matn kiriting.</i>
Identifikasiya raqami	<i>Matn kiriting.</i>
Nominal qiymati	<i>Matn kiriting.</i>
Valyuta turi	<i>Matn kiriting.</i>
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar soni	<i>Matn kiriting.</i>
Chiqarilish sanasi	<i>Matn kiriting.</i>
So'ndirilish sanasi	<i>Matn kiriting.</i>
Kupon foizi	<i>Matn kiriting.</i>
Foizlarni hisoblash uchun qo'llaniladigan konvensiya (agar kerak bo'lsa)	<i>Matn kiriting.</i>
Taklif etilgan narx	<i>Matn kiriting.</i>
Taklif muddati	<i>Matn kiriting.</i>
Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish sanasi	<i>Matn kiriting.</i>
Qimmatli qog'ozlarni birja kotirovkalash varag'iga kiritish va ularni sotish mumkin bo'lgan bozor segmentlari bo'yicha tafsilotlar	<i>Matn kiriting.</i>
Qimmatli qog'ozlar sotiladigan barcha bozorlar ro'yhati	<i>Matn kiriting.</i>
Emitent maslahatchilari	<i>Matn kiriting. (Anderrayterlar, auditorlar, huquqshunoslar va ushbu transh bo'yicha maslahat beradigan boshqa shaxslarni ro'yxatlang)</i>

LISTING TALABLARI

“Bond Market” obligatsiyalar bozori

“Birja obligatsiyalari”

№	Talab nomi	Belgilangan talab
1.	Xususiy kapital miqdori	100 mlrd so‘mdan kam emas
2.	Emitent mavjudlik davri	1 yildan kam emas
3.	Moliyaviy ko‘rsatkichlari	Oxirgi yil uchun yoki agar emitent 2 yildan kamroq vaqt davomida mavjud bo‘lsa, oxirgi hisobot davri uchun ijobiy moliyaviy natijalar
4.	Ilgari chiqarilgan obligatsiyalar bo‘yicha emitent tomonidan defolt holatlarining yo‘qligi, agar oldin chiqariluvlar bo‘lgan bo‘lsa	Oxirgi uchta joylashtiruv davomida
5.	Quyidagi reyting kompaniyalaridan biri tomonidan berilgan amaldagi kredit reytingining mavjudligi: S&P Global Ratings, Fitch Ratings, Moody’s mos ravishda ‘B+’, ‘B-’ va ‘B3’ toifalaridan past bo‘lmagan.	Majburiy
6.	Birja obligatsiyalarining minimal nominal qiymati Joylashtiriladigan obligatsiyalarning minimal soni	1,000,000 (bir million) so‘m; 1000 (ming) dona;
7.	Rentabelilik, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning moliyaviy ko‘rsatkichlari	<p>1. Rentabelilik: $ROE = \frac{Chp}{Sk.sr}$ Chp – hisobot davri uchun sof foyda Sk.sr – hisobot davri uchun o‘z kapitalining o‘rtacha arifmetik qiymati $ROE_{norm} > 0$</p> <p>2. To‘lov qobiliyati (likvidlilik): $K_{pl} = \frac{A_2}{(P_2 - DO)}$ A₂ – joriy (aylanma) aktivlar P₂ – majburiyatlar DO – uzoq muddatli majburiyatlar</p>

		<p>$K_{p\nu\nu\nu} > 1$</p> <p>3. Moliyaviy barqarorlik:</p> <p>$K_{fu} = \frac{(P_1 + Dzk_2) - A_1}{A_2}$</p> <p>$P_1$ – o‘z mablag‘lari manbalari Dzk_2 – uzoq muddatli qarzarlar va kreditlar, A_1 – uzoq muddatli aktivlar A_2 – joriy (aylanma) aktivlar</p> <p>$K_{fu\nu\nu} > 0,2$</p>
--	--	--

Birja obligatsiyalarini ro‘yxatga olish jurnali

№	STIR	Emitent nomi	Ro‘yxatga olish sanasi va raqami	Identifikatsiya raqami	Nominal	Kupon foizi	Umumiy soni	Umumiy hajmi
	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8
1								
2								
3								
4								
5								
6								

X1 tashkilot STIR raqami

X2 birja obligatsiyasini chiqaruvchi emitent nomi

X3 Birjaning mas’ul bo‘limi tomonidan belgilangan birja obligatsiyalari chiqarilishini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasi va raqami

X4 qimmatli qog‘ozni noyob tarzda identifikatsiya qiluvchi 12 xonali harf va raqamli kod

X5 birja obligatsiyalarini chiqarishda emitent tomonidan belgilanadigan bitta obligatsiyaning nominal qiymati

X6 kupon foizi (kupon foizli birja obligatsiyalari uchun)

X7 muomalaga chiqarilgan birja obligatsiyalarining umumiy soni

X8 birja obligatsiyalarini chiqarishning umumiy hajmi (X5 x X7)

Identifikatsiya raqami

Y1, Y2, Y3 – birjaning qisqartirilgan nomini

Y1 – R

Y2 – S

Y3 – E

Y4, Y5, Y6, Y7 – emitent ID sning oxirgi 4 raqami

Y8 – faoliyat sohasi

I – Soha

A – Agrosanoat majmuasi

C – Qurilish sektori

S – Ijtimoiy soha
T – Transport
B – Moliya va savdo sektori
O – Boshqa sektorlar

Y9, Y10 – qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining seriya raqami

Y11 – qimmatli qog‘oz turi
S – Kupon ko‘rinishidagi birja obligatsiyalari
D – Diskontlangan birja obligatsiyalari

Y12, Y13, Y14 – birja tomonidan ro‘yxatga olingan seriya raqami

Y15 – amal qilish mudati
0 – bir yildan kam
1 – yil

*“Toshkent” RFBda birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan
o‘tkazish, joylashtirish va
muomalada bo‘lish tartibiga
5-ILOVA*

(kompaniya blankasida)

Birja obligatsiyalarning muomala muddati tugaganligi to‘g‘risidagi

BILDIRISHNOMA

_____, manzil bo‘yicha
joylashgan: _____ birja obligatsiyalari

(emitentning to‘liq nomi)

chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror (_____ yil, ro‘yxat raqami _____) birja
obligatsiyalari dasturiga tegishli Oferta hujjatiga/ Oferta shartlari formasi asosida chiqarilgan
_____ birja obligatsiyalarning

(haqiqatda joylashtirish tugagan sana)

_____ dona yoki _____ foizi to‘liq (qisman) jamiyat tomonidan so‘ndirilganligini (sotib
olinganligini) ma‘lum qiladi.

1. Birja obligatsiyalarni to‘liq so‘ndirishda nominal qiymatini to‘lovini amalga oshirish sanasi (to‘liq so‘ndirilgan holatda): _____;
2. Xarid qilingan obligatsiyalar (muddatidan oldin qaytarib sotib olinganda) bo‘yicha amalga oshirilgan oxirgi to‘lovning sanasi: _____.
3. emitent depo hisobvarag‘iga obligatsiyalarni oxirgi o‘tkazish sanasi: _____.

Birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjatiga/ Oferta shartlari formasi (____y.
ro‘yxat raqami ____-sonli) ga asosan _____

(emitent nomi)

_____. chiqarilgan
(birja obligatsiyasi ko‘rinishi, nominal qiymati va soni)

Birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjati/ Oferta shartlari formasi (____y. ro‘yxat
raqami ____-sonli) ga asosan obligatsiyalarni so‘ndirish tugagan sana (muddat):
_____.

Kuzatuv kengashining raisi

(imzo)

(F.I.Sh.)

Emitent rahbari

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh hisobchi

(imzo)

(F.I.Sh.)

*“Toshkent” RFBda birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan
o‘tkazish, joylashtirish va
muomalada bo‘lish tartibiga
6-ILOVA*

(kompaniya blankasida)

**Avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan Birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjatiga/
Oferta shartlari formasiga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni
ro‘yxatidan o‘tkazishga
ARIZA**

_____ manzil bo‘yicha joylashgan:
_____, avvalgi ro‘yxatdan o‘tkazilgan birja obligatsiyalari
(emitentning to‘liq nomi)
Dasturiga tegishli Oferta hujjatiga/ Oferta shartlari formasiga o‘zgartirishlarni
_____ ro‘yxatidan o‘tkazishingizni so‘raydi.
(ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami)
Avvalgi ro‘yxatdan o‘tkazilgan Ofertaga o‘zgartirishlar _____
_____ sababli kiritilmoqda.
(birja obligatsiyalari chiqarilish Ofertasiga o‘zgartirishlar kiritishning sababi ko‘rsatiladi)

Rahbar

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh hisobchi

(imzo)

(F.I.Sh.)

SANA

*“Toshkent” RFBda birja
obligatsiyalarini ro‘yxatdan
o‘tkazish, joylashtirish va
muomalada bo‘lish tartibiga
7-ILOVA*

“Toshkent” RFB tomonidan _____ -son
(ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana) (ro‘yxat raqami)

bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “ _____ ”
(emitentning nomi)

birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjatiga/ Oferta shartlari
formasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarning

MATNI

Amaldagi tahrir	Yangi tahrir
Birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta hujjatini/ Oferta shartlari formasini ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami	

Emitent rahbari _____

(F.I.Sh., imzo)

Emitent bosh buxgalteri _____

(F.I.Sh., imzo)

Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan birja obligatsiyalari Dasturiga tegishli Oferta
hujjatiga/ Oferta shartlari formasiga o‘zgartirishlar kiritishga doir hujjatlarni
tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi:

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.Sh. va imzosi:

Sana